

TARIXIY ASARDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANISHI (JAVLON JOVLIYEVNING "QO'RQMA" ASARI ASOSIDA)

Soliyeva Xusnida Hasanboy qizi

University of Business and Science universiteti o'qituvchisi

Email: husnida201@gmail.com

Tel:998978261197

Annotatsiya

Ushbu maqolada diskurs mavzusi tahlilga olingan va shu bilan bir qatorda tarixiy diskursning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Tarixiy asarda antroponimlar va toponimlar ularning nominativ va kommunikativ xususiyatlari tahlilga olingan. Asarda antroponimlarning badiiy adabiyotda qo'llanish doirasidagi uning vazifalari haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: diskurs antroponim toponim Qo'rqma Lola Abdurauf Fitrat Ulug' Kursdosh

Аннотация: В данной статье рассматривается тема дискурса, а также обсуждается значение исторического дискурса. В историческом произведении анализируются антропонимы и топонимы, их номинативные и коммуникативные особенности. Также в статье рассматриваются функции антропонимов в художественной литературе и сферы их использования.

Ключевые слова: дискурс, антропоним, топоним, *Не бойся, Лола*, Абдурауф Фитрат, Улуг Курдош

Annotation: This article analyzes the topic of discourse and also explores the importance of historical discourse. In the historical work, anthroponyms and toponyms are examined, focusing on their nominative and communicative features. The article also discusses the functions of anthroponyms in literary works and their scope of use.

Keywords: discourse, anthroponym, toponym, *Don't Be Afraid, Lola*, Abdurauf Fitrat, Ulug' Kursdosh

Diskurs – fanlararo tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Nazariy tilshunoslikdan tashqari, kompyuter tilshunosligi va sun'iy intellekt, psixologiya, falsafa va mantiq, sotsiologiya, antropologiya va etnologiya, adabiyot, semiotika, tarixnavislik, ilohiyot,

huquq, pedagogika, tarjima nazariyasi va amaliyot, siyosat va boshqa diskurs bilan bog'liq fan va tadqiqot sohalarining ham asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi. Ushbu fanlarning har biri diskursni o'rganishga o'ziga xos tarzda yondashadi. N.A.Nikonov toponimlar atoqli ot sifatida uch xil ma'noga ega deb hisoblagan: 1) toponimgacha bo'lgan ma'no, ya'ni apellyativning etimologik ma'nosi); 2) toponimning o'z ma'nosi va 3) toponimlikdan keyingi ma'nosi [2,62-63]. N.A.Nikonovning yozishicha, Yelena ismida "odam" "ayol" tushunchasi mujassamlashgan. Bundan tashqari, bu ism "mana u", "shaxs" kabi ma'nolarga ham ishora qiladi[3,55].Ozarbayjon tilshunosi Hasan Aliev ishida ham shunga o'xshash fikrni ko'rish mumkin. Uning yozishicha, atoqli ot xususiy va umumiy ma'noga ega. Masalan, Sevil ismi - inson, ayol, azarbayjon ayoli ma'nolarini, Ivan esa - inson, erkak, rus ma'nolariga ega [4, 7]

Biz adabiyot sohasidagi diskursning tarixiylik jihatini tahlilga tortdik. Badiiy asarda diskursning tahliliga chuqur yondashish maqsadida Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" asarida atoqli otlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Asarda turli xil kategoriyadagi atoqli otlar qo'llanilgan. Shu jumladan, Antroponimlar (kishi nomlari) Toponimlar (joy nomlari) turli xil tashkilot nomlarini va boshqa atoqli otlarni kuzatdik. Shulardan bir qanchasini tahlilga tortdik. Asarda qo'llanilgan har bir atoqli otlar o'zining kommunikativ-informativlik xususiyatiga ega.Bu onomastik birliklar orqali tarixiy asardagi umumiy g'oya o'quvchiga tushunarli va aniq yetkazib beriladi. Mana shunday xususiyatni ochib berish uchun muallif asarda turli xil antroponimlardan foydalanilgan.

Asarning bosh qahramoniga ism qo'llanmagan. Bu ham o'ziga xos nom bilan beriladi. Lola ismli qiz bosh qahramonning sevgan qizi. *"Maktabdan Lolani sevdim va hali ham sevaman. Qo'shni edik, qo'shyurakka aylanib o'sdik"*.Diskurs - bu keng tarixiy ma'nolarni yetkazish uchun tilning ijtimoiy jihatdan qo'llanilishidir.Bunda tarixiy nomlarning qo'llanishining o'z funksiyasi bor. Abdurauf Fitrat siymosida Germaniya tahsil uchun ketayotgan talabalar maqsadi aniq qilib belgilangan. *Fitrat nigohi o'tkirlashgan. Borgan sari uning qadamlari tezlashar, qo'llarini oyoqlariga monand oldinga tashlardi. Barcha uning ortidan chopqillar, Temur maqbarasi esa butun Samarqandga soya solib turgandek mag'rur va tik edi.* Bu qo'llanilishining ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo'llanayotgani bilan belgilanadigan tildir. Asarda esa o'quvchi muallif uqtirmoqchi bo'lgan fikrini tarixiy shaxs yordamida yetkazadi.Munavvarqori Abdurashidxonov bu shaxs tarixiy manbalarda ham marifatparvar va jadidchilik yetakchisi sifatida ta'riflanadi.Turkiston uchun bilimli yoshlar kerakligini erta anglagan va qo'llab -quvvatlagan. *"Munavvarqori Abdurashidxonovga xat yozgansiz. Siz Turkiston hayotida G'arb Ovrupasining o'rni katta ekanligini ta'kid etib: "Xorijda talabalarni o'qitish bitta-ikkita tog' va sanoat*

mutaxassislarini yetishtirish bilan yakunlanmasligi, bu bilan biz o'ylagan xalqning qashshoq hayoti o'nglanmasligi ravshan. E'tiborni ahvolni yaxshilash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarga va ularni ishga solishga qaratish lozim. Buning uchun bizga iqtisodiyotni biladigan, chuqur bilimli mahalliy yoshlarimiz suv va havodek zarur"

Atoqli ot "semantik jihatdan qisqartirilgan" va tushuncha bilan bog'liq emas: "turdosh otning atoqli otga aylanishi, eng avvalo, tushunchaning yo'qolishi va so'zning taxallusga aylanishi; aksincha, atoqli otning turdosh otga aylanishi so'zni yangi muhim xususiyatlari orqali yangi tushuncha hosil qilishi bilan bog'liqdir" [1, 61- . Asarda qo'llangan germaniyalik ayol nomi ham informativlikni ta'minlagan. "Yotoqxonada mudiri Laura Shmidtning aytishicha, janjal sevgi mojarosi tufayli yuz bergan." Amir temur maqbarasi orqali talabalar Temurdan duo olgandek, Amir Temur ham fotiha bergandek tasvirlanadi. *Qarshimizda tarix va shon ko'milgan maqbara emas, balki Temurning o'zi serqosh, o'tkir nigohlari bilan tikilib turgandek cho'chirdik.* Asarda bola tug'ilishi bilan la'nat tekkan deb bu lanat qayerdan va kimdan qolganini bilish maqsadida bobosini tinmay so'roqlaydi. Aslida sotqin kim ekanligini bilgan bobosi haqiqatni aytishdan qochadi. Qishloqdoshlar esa bu haqiqatni bilar edilar

V.N. Teliyaning so'zlariga ko'ra, nomlanish aktlari pragmatik omillar bilan bevosita hamkorlikda davom etishi mumkin. Ikkinchisi signifikat - nominatorlarning ifodalashga bo'lgan u yoki bu munosabatida o'z izini qoldiradi: emotsional, baholovchi, nomlovchining nutqning ijtimoiy sharoitlariga yoki tilning mavjudlik shakllariga yo'naltirilishi va uning funktsional va stilistik farqlanishi. Nomlashda nafaqat obyektiv voqelik elementlari aks etadi, balki pragmatik, subyektiv munosabat ham ma'noning maxsus subyektiv-modal komponenti hisobiga til birliklarining ekspressiv xususiyatlarini yaratadi [5].

"Shodi cho'loq, Umri qozoq, Tursunqul bobolar aytishdi. Sizning otangiz qonxo'r va buzug bo'lgan. Nomoz o'qiyman !! Bir paytlar barini bobom o'qishga solgan. Hammasiga Toshkentdagi Ulug' Kursdosh "tanka"lik qilgan." Asarda Ulug' Kursdosh nomi bilan tilga olingan bu shaxs poraxo'rlik hamda korrupsiyaning yaqqol namoyandasi hisoblanadi. *"Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Cho'lpon singari turkiy olamga tanilib ulguragan ulug' yo'l boshchilar paydo bo'lgan."* U bilan Bobur va Toj mahal borasida bahslashib qoldik. u Londonda ko'p bo'lgan ekan. "Biz hindlarni odam qilgan inglizlar", — dedi. Men uning ahvolidan kuldim. O'zimizda ham bundaylarning hisobi yo'q-ku, lekin o'zga yurtga borib ochiqcha aytadiganlari kam. *Xano Fir'avn lam senchalik o'tmishga buncha ko'p pora tutmagan..* Bu tarixiy shaxs orqali o'xshatish vositasida antroponimdan foydalanilgan. *Leninni qo'msardi: "Axir, nonning narxini kopeyka qilgan! Qani shunday kapa!" Millatning uyg'ongani hamma bir yoqadan bosh*

chiqarib millat bolalari uchun ilm olishi kurashi tasvirlanadi. Yosh jonini kuyitib, tengdoshlariga “ko‘mak”ka uringanlar ichida Sayyid Alixo‘ja, Ibrohim Orifxon, Kamol Dadaxo‘ja unsh, Risqi Rahimiy, Abduvohid Jalongir, To‘lagan Mo‘min, Ochilxo‘ja, Axmad Shukriy, Tokir Shokiriy, Salimxon Tillaxonovlarning borligi millat kuziga ko‘p o‘tmay quvonch yoshlari quyilishidan umid beradi. Ular o‘zni o‘ylamadi, choyxonada qariyalarday esnamadi, millatning yuzaga chiqishini istab, ko‘chama-ko‘cha yurib, tilanib bo‘lsa-da, talabalarni chetda o‘qitishni niyat qildi.”Ko‘mak”ning tez orada hududiy bo‘limlari ochilib, farzandlarimizning Olmoniyada o‘qishi uchun xayriya pullari ul tarafdardan ham yig‘iladi. Biz Mannon Uyg‘ur boshchiligidagi teatr jamoasi hamda ulug‘ shoirimiz Cho‘lpon hamkorligida bir spektakl tayyorlab,

”Ko‘mak” uchun namoyish ettiramiz. Mana bugun Turkiston bolalari Olmoniyada, bir o‘ris qatori, bir nemis, bir polyak qatori o‘tiribdi, kerak bo‘lsa, undan ortiq tafakkur bilan o‘qiyapti. Ammo yana sen ig‘vo to‘qimoqdasan. Nahot bir paytlar Petrovskiy Ovro‘paga o‘qishi uchun birorta talaba topolmay qolganini eslaringga olmaysan-u, Hammang bir go‘rsan, avval ham allakanday *Shoyim* degani paydo bo‘lgandi:

Professor Dyurte xonim Nozima Shirinbek Potya Abduvahob qizi Marta xonim Meyerson Ahmad Shukuriy tarixiy va to‘qima obrazlar qatnashgan. Asarda Naviy ham tilga olingan. Navoiyning Farhod va Shirin ham Layli ,ajnun ham qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy asarlarda tarixiy antroponimlarning qo‘llanishining ahamiyati katta. Chunki tarixiy asarlarda tarixiy shaxslar tarixiy joy nomlarining o‘ziga xos funksiyasi mavjud. Ularda nominativ funksiyasi bajarish bilan bir qatorda Kommunikativ vazifani ham bajaradi. Tarixiy asar orqali tarixiy haqiqatlar tarixiy faktlar va tarixiy shaxslarning hayoti faoliyatiga oid dolzarb ma‘lumotlarni olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Реформатский А.А. Введение в языковедение / под ред. В.А. Виноградова. М.: Аспект Пресс, 1996. 536 с.
2. Никонов В. А. Введение в топонимику. Москва, 1965. –С.184
3. Никонов Н. А. Задачи и методы антропонимики//Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. М., 1970. С.55.
4. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: Наука, 1986. 143 с.
5. Элиев Нэсэн. Умумий антропонимика проблемлэри. Баку, 1985. 170 б
6. Javlon Jovliyev Qo‘rqma. Toshkent, 2020